

RAVISHDOSH O'RAMLI MURAKKABLASHGAN SODDA GAPLARNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Shoxsanam Anvarovna NURILLAYEVA

tayanch doktorant

Alisher Navoiy nomidagi

O'zbek tili va adabiyoti universiteti

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

Sodda gaplar ham mazmunan, ham shaklan murakkablashgan gaplar bo'lib turli vositalar yordamida murakkablashadi. Ushbu maqolada ravishdosh o'ramli murakkablashgan sodda gaplar tahlil qilinadi.

Tayanch so'zlar: murakkablashgan gap, ravishdosh o'ram, propozitsiya, asosiy predikat, ikkinchi darajali predikat, subyekt.

ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОСЛОЖНЁННО- ПРОСТЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ С ДЕЕПРИЧАСТНЫМИ ОБОРОТАМИ

Шохсанам Анваровна НУРИЛЛАЕВА

Базовый докторант

Университет узбекского языка и литературы им. Алишера Наваи
Ташкент, Узбекистон

Аннотация

Простые предложения – это как по содержанию, так и по форме сложные предложения, которые усложняются различными средствами. В этой статье будут проанализированы осложнённо- простые предложения с деепричастными оборотами.

Ключевые слова: осложнённое предложение, деепричастные обороты, пропозиция, главный предикат, вторичный предикат, субъект.

Tilshunoslikda sodda gapni murakkablashtiruvchi vositalar haqidagi qarashlar xilma-xil. Ba'zi tadqiqotchilar murakkablashtiruvchi vositalarga sifatdosh, ravishdosh, harakat nomili o'ramlar, kiritma va o'xshatishli qurilmalarni kirlitsa, ba'zi tadqiqotchilar tasavvur nomlari, segment qurilmalar ham sodda gapni murakkablashtiruvchi vosita ekanligini qayd etadilar. Sodda gapni murakkablashtiruvchi vositalarga ajratilgan bo'laklar, uyushiq bo'laklar, murojaat birliklarining kiritilishi deyarli barcha tadqiqotchilar tomonidan ma'qullangan. Sodda gaplarning murakkablashuvi ikki xil yo'l bilan amalga oshadi: shakliy murakkablashuv va mazmuniy murakkablashuv. N.Mamudov ikkinchi darajali

predikasiyaga ega bo‘lgan qurilmalarga sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi, fe’lning shart mayli shaklli oborotlarini kiritadi hamda bunday qurilmalar hisobiga sodda gaplarda ikki yoki undan ortiq propozitsiya ifodalanishini, sodda gap semantik substratining murakkablashuvi natijasida gapda semantik sintaktik-asimmetriya yuzaga kelishini ta’kidlaydi [4; 99]. D.Nurmonova murakkablashgan sodda gaplarda neytrallashuv hodisasini tadqiq qilgan. Tadqiqotchi bir sodda gap shakli orqali uch propozitsiya ifodalanishini “sodda va qo‘shma gaplar mo‘tadillashuvi yuz bergen. Mo‘tadillashuv uchun asos propozitsiyalar o‘rtasidagi predikasiyaning mavjud mavjud emasligiga ko‘ra privativ zidlanishdir” [2; 99] deya baholaydi. Rus tadqiqotchisi N.Patroyeva sodda gapning murakkablashuvini shakliy, shakliy-semantik, semantik turlarga ajratadi Shakliy murakkablashuv segment qurilmalar, shakliy-mazmuniy murakkablashuv ajratilgan bo‘laklar, o‘xshatishli qurilmalar, ilova qurilmalar, semantik murakkablashuv kirish, kiritmalar, murojaat birliklari vositasida amalga oshadi [3; 16] O‘zbek tilshunosligida segment qurilmalarning pragmatik xususiyatlarini tadqiq qilgan M.Umurzoqova birikmali tarzda qo‘llangan segment qurilmalar presuppozitsiyaga ishora qilishi bilan gapni murakkablashtirishini qayd etadi. “Segment qurilmalar so‘zlovchining kommunikativ niyatini ifodalash maqsadida qayta shakllantirilgan gaplardir, bu hodisa so‘zlovchining ko‘zda tutgan maqsadini namoyon etishi bilan pragmatikaning bosh masalasiga aylanadi. Segment bo‘lak aktuallashtirilgan bo‘lak sifatida tinglovchining diqqatini ma’lum bir o‘ringa tortishi bilan pragmatik vazifani bajaradi” [6].

O‘zbek tilshunosligida ravishdosh o‘ramlar, ularning gapdagি sintaktik o‘rni masalasida qarashlar turlicha. Formal tilshunoslikda ravishdosh bilan shakllangan gaplar asosan ergashgan qo‘shma gapda ergash gapning kesimi sifatida talqin qilingan. – (i)b affiksli ravishdosh ravish ergash gapning kesimi bo‘lishi bilan birga, boshqa turdagи ergash gaplarning ham kesimi bo‘lishi, hatto bog‘langan qo‘shma gaplarda sodda gapning kesimi bo‘lishi qayd qilingan. “Ravishdoshning bu formasi hatto bog‘langan qo‘shma gaplardagi sodda gapning ham kesimi bo‘lib keladi:

Daraxtlar sarg‘ayib, ariqlarda xazon uyumlari oqib keldi” [3; 229]. Muallflar bunday holatni sodda gaplarning qo‘shma gap tarkibida tenglik xarakterida ekanligi bilan izohlashgan. Ravishdoshning qo‘shma gapda ergash gap kesimi yoki sodda gap komponenti bo‘lib kelishi quyidagicha farqlangan: “Ravish ergash gaplar esa, kesimning mavjudligi bilan ravishdosh oborotdan farq qiladi” [3; 229]. Formal tilshunoslikda hokim bo‘lak sifatida ega tan olinganligi bois oborotlarda “ravish ergash gapga o‘xhash kesimi mavjud bo‘lsa ham, shu kesimning alohida egasi yo‘qdir. Ravishdosh oborotning kesimi bilan ifodalangan harakat bajaruvchisi shaxs-predmet ham sodda gapning egasidir” [5; 229], deya talqin qilingan.

Til birliklarining semantikasiga qiziqishning kuchayishi natijasida sodda gaplaring murakkablashuvi masalasiga e’tibor ham kuchaydi. Murakkab mazmunning murakkab shaklda emas, balki sodda shaklda ifodalanishi til vositalarini tejash tamoyilining tilda yaqqol namoyon bo‘lishi shakllaridan biri ekanligi tilshunos olimlar tomonidan qayd etiladi [1;69]. Mualliflar sodda gap tarkibiga turli sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi, shart maylidagi fe’lli o‘ram (oborot)larni kiritish ham shakl, ham mazmun jihatidan murakkablashishi, bunday holatlarda ikkinchi darajali predikatsiyaga ko‘ra gaplar predikativ jamlanish yuzaga kelishi asoslab berildi. Bunday murakkablashtiruvchi vositalarda muayyan propozitsiya ifodalanadi. Tabiiyki, propozitsiyaning birdan ortiq bo‘lishi sodda gaplarning mazmunan murakkablashuviga sabab bo‘ladi.

Ravishdosh o‘ramlar gapdagi asosiy harakatga belgi sifatidagi qo‘shimcha harakat, holat va shu kabilarni ifodalaydi. Ikkinchi darajali predikatsiyali bunday ravishdosh o‘ramlar ishtiroki bilan sodda gapning mazmuniy tarkibi murakkablashadi [1; 78].

Ravishdosh o‘ramlar ishtirok etgan sodda gaplarning muhim jihatni asosiy va ikkinchi darajali predikat subyektlarining umumiyligidir. Gapdagi ikkinchi darajali propozitsiya alohida subyektni xarakterlasa, bunday ravishdosh o‘ram ergash gap sifatida o‘rganilgan. Ravishdosh o‘ram ham sifatdosh o‘ram singari sodda gapni

mazmuniy jihatdan murakkablashtiradi va shakl va mazmun nomuvofiqligini yuzaga keltiradi. Quyidagi gapda uchinchi shaxs birlikdagi kishilik olmoshi *u* asosiy predikat (sezmay qoldi) uchun ham, ikkinchi darajali predikat (*o'ylab*) uchun ham subyekt vazifasini bajargan. *U Maymoq bilan bo'ladigan tungi uchrashuvni o'ylab, ezgin ovozda uv tortib yuborganini sezmay qoldi* (N.Norqobilov). Keltirilgan misolda ravishdosh o'ram *tunda Maymoq bilan uchrashadi* degan propozitsiyani ifodalagan. Bu ifoda esa *kunduz kuni vaqt yo'q, bu uchrashuv ko'ngilsizlikka olib kelishi mumkin* degan mantiqiy presuppozitsiyalarni ham keltirib chiqaradi.

Subyektning umumiyligi asosiy va ikkinchi darajali predikatlarning oson aloqaga kirishishini ta'minlasa, ravishdosh o'ramda ifodalangan mazmun qo'shimcha ma'no nozikliklariga xizmat qiladi [1; 79]. Quyida keltirilgan gapda ikkinchi darajali pedikat (*titrab-qaltirab*) asosiy predikat (*tisarilardi*)da ifodalanayotgan harakatning tarzini bildirib kelayotgani uchun ravish holi sintaktik vazifasini bajaradi. *Ergash bodining tagidagi ot qo'rquvdan titrab-qaltirab ortga tisarilardi* (N.Norqobilov). Keltirilgan gapda *ot ortga tisarilardi* birlamchi propozitsiya ifodalagan bo'lsa, otning qo'rishi ravishdosh orqali ifodalangan propozitsiyadir. Gap yaxlit holda *Ergash bodidan hamma qo'rqadi, hatto ot ham qo'rqadi* degan presuppozitsiyaga ishora qiladi.

Murakkablashgan sodda gaplarda ravishdosh o'ram gapda turli birikmali gap bo'laklari vazifasida keladi. Ravishdosh fe'lning o'zgalovchi kategoriyalaridan biri bo'lib, ko'p hollarda gapda harakatning belgisini ifodalaydi hamda hol vazifasida keladi. Quyidagi misolda ravishdosh o'ramning tarz holi vazifasida kelganini ko'rishimiz mumkin: *G'uchchi pakana esa bolishni quchoqlab, tuni bilan uxlayolmay chiqadi* (N.Norqobilov). Ushbu misoldagi *G'uchchi pakana esa bolishni quchoqlab* ravishdosh o'ram *G'uchchi pakana* nimadandir bezovta, shu sababli uxlay olmaydi degan propozitsiya ifodalagan.

"Ikkinchi darajali predikasiyalari ravishdosh o'ramlar ishtiroki bilan ikki yoki undan ortiq mazmun munosabatining subyektlarning umumiyligiga ko'ra qo'shilushi

natijsida sodda gap mazmunan murakkablashar ekan, ikkinchi (darajali predikatdagi harakatning asosiy predikatdagi harakatdan oldin bajarilganlik ma'nosidan iborat ko'shimcha ma'no juda ham aniq ifodalanadi” [1;79]. *U soylardan sakrab, archazorlardan quyunday uchib, hududining sharqiy chegarasi hisoblanmish tor yalanglikka yetib kelganda, hanuz g'azabdan quturmoqda edi.* (N.Norqobilov). Yuqoridagi gap hajm jihatdan salmoqdur bo'lsa-da, subyekt (u)ning gap tarkibidagi barcha (asosiy va ikkinchi darajali) predikatlar uchun umumiyligi uni murakkablashgan sodda gap sifatida o'rganishimizni taqazo etadi. Shuningdek, ushbu jumla mazmuniga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ravishdosh o'ramlar (*soylardan sakrab, quyunday uchib*) asosiy predikat (*quturmoqda edi*) harakatini bajarishgacha amalga oshirilgan harakatlarni ifodalashga xizmat qilganini ko'rishimiz mumkin. Subyektlarning bu umumiyligi mazkur sodda gap doirasida ikki propozitsiyaning qo'shilushi uchun zaruriy sharoit sifatida imkoniyat yaratgan, sintaktik sodda gapning mazmuniy tarkibi murakkablashgan. Ayni damda ikkinchi darajali propozitsiyadagi harakat asosiy propozitsiyadagi harakatdan oldin sodir bo'lganini ko'rsatib turibdi [1; 79]. - *gach* qo'shimchasi yordamida yasalgan ravishdosh o'ram payt ma'nosini ifodalagan quyidagi gapda ham subyekt (asosiy predikat shaxs-sonidan anglashiladi) umumiyligi muhim ahamiyatga ega: *Uyga qaytgach, tijoratchi oshnamning yoniga bordim (Sotim Avaz).* Ushbu misolda uyga qaytdim, oshnamning yoniga bordim propozitsiyalari ifodalangan. Ravishdosh o'ramning kesimi *qaytdim fe'li ketgan edim* degan presuppozitsiyaga ham ishora qilgan. Ko'rinish turibdiki, ravishdosh o'ramli sodda gaplarda bir necha propozitsiya ifodalanishi bilan birga presuppozitsiyaga ham ishora qilish imkoniyatining mavjudligi uni ham mazmun, ham shakl jihatidan murakkablashuviga sabab bo'lgan.

– (i)b qo'shimchasi yordamida shakllantirilgan ravishdosh o'ramlar turli qo'shimcha ma'nolarni ifodalay oladi. Quyida ikkinchi darajali predikatsiyali ravishdosh o'ramda ifodalangan harakat (*turib*)ning asosiy predikat (*o'tirib oldi*)dan avval bajarilganlik ma'nosini ko'rishimiz mumkin. *Yoldor yotgan joyidan turib,*

bahuzur cho'nqayib o'tirib oldi (N.Norqobilov). Bu gapda ham subyekt bitta. Ravishdosh o'ram harakatning bajaruvchisi *yotgan edi* degan propozitsiya ifodalash bilan birga uning o'tirishga imkon yo'qligiga ishora qiluvchi presuppozitsiyaga ham yo'l ochadi. Quyidagi misolda sodda gaplarning har biriga bajarilgan harakatlar orasida payt munosabati, ketma-ketlik qo'shimcha ma'nosи ravishdosh o'ram vositasida yuklangan. *Oxiri u pichog'ini qorga sanchib, kuh-kuhlab, kaftlarini isitishga tushdi. Orada chuquurning nishabroq bo'lib ko'ringan devori tomon siljib, undan chiqishni o'yladi. Oqibat, barcha urinishlari behudaligini, yarador oyog'i bilan yuqoriga tirmashib bo'lmasligini anglab, sudralib yana joyiga qaytdi* (N.Norqobilov). Keltirilgan misolda ravishdosh o'ramlar *qorga sanchib, chuquurning nishabroq bo'lib ko'ringan devori tomon siljib* gapni propozitsiya ifodalashi bilan murakkablashtirgan bo'lsa, uning tarkibidagi so'zlar *hozir qish, sovuq, chiga olmaydigan darajadagi chuqurda yotibdi* kabi presuppozitsiyalarga ishora qilgan. Ravishdosh o'ram asosiy predikatda ifodalangan harakatning bajarilish tarzi kabi qo'shimcha ma'nolarini korsatishga xizmat qiladi: *Epchil yigitlar arqonga osilib, osilmay chuquurga tusha boshladilar* (N.Norqobilov). Yuqoridagi jumlada ham ikkinchi darajali propozitsiya vazifasida kelgan ikki fe'l (osilib, osilmay) asosiy propozitsiya (*tusha boshladilar*)ning bajarilish tarzini ko'rsatib, ravish holi sintaktik vazifasini bajargan.

Yuqorida keltirilgan misollarda ravishdosh o'ram bilan shakllantirilgan ikkinchi darajali predikatsiyali gaplarda subyekt umumiyo bo'lib, bu tilda tejamkorlik tamoyili asosida yuzaga kelgan. Quyidagi gapda esa nafaqat subyekt (*o'g'il bolalar*), balki gapda ifodalanayotgan harakatlar (*yasab, chiyillatib chalib yurishadi*)ga bevosita bog'liq bo'lgan obyekt(*surnay*)ning ham umumiyligini ko'rshimiz mumkin. Bu holatda nutqiy ortiqchalikka yo'l qo'ymaslik maqsadida keyingi o'rinlarda obyektning sintaktik jihatdan tushirib qoldirilganiga e'tibor qaratish lozim. *O'g'il bolalar esa tol novdasidan surnay yasab, chiyillatib chalib yurishadi (Isajon Sulton).* – (i)b qo'shimchasi yordamida shakllantirilgan ravishdosh o'ramli murakkablashgan

sodda gaplarda sabab munosabatini ham ifodalaniши mumkin. Asosiy predikat (*qaytib ketishdi*)ning qanday sababning oqibati ekanı ikkinchi darajali predikat (*hayiqishib*) vositasida anglashilgan. *Qizaloqlar hayiqishib, ortlariga qaytib ketishdi* (Isajon Sulton). Quyidagi gapimizda subyekt (*u-bolacha*) sintaktik jihatdan tushib qolgan bo‘lsa-da, mazmunan ifodalangan va *u* barcha – asosiy predikat (*siyb qo‘yar edi*) va ikkinchi darajali predikatlar (*iljayib turib, chuvillatib*) uchun umumiyy. Ushbu gap tahlilidagi yana bir muhim jihat shundaki, ikki ravishdosh o‘ram ikki xil qo‘shimcha ma’noni ifodalashga xizmat qilgan. Birinchi ravishdosh o‘ram (*iljayib turib*) asosiy predikat (*siyb qo‘yar edi*) bilan bir vaqtida bajariladigan harakatni bildirsa, ikkinchi ravishdosh o‘ram (chuvillatib) asosiy propozitsiyaning bajarilish tarzini ko‘rsatgan. *Iljayib turib, chuvillatib siyb ham qo‘yar edi...* (Isajon Sulton).

Quyidagi misolda ravishdosh o‘ram xalq maqolining o‘zgargan shaklda qo‘llanilishiga misol bo‘ladi *Uzoqdagi quyruqqa intilib, yaqindagi o‘pkadan quruq qolmagin tag‘in* (N.Norqobilov).

Ravishdosh o‘ram gapda birikmali holatda bir gap bo‘lagi vazifasida keladi. *Yoldor xavfli raqibligini birpasda namoyish etib, butun to‘dani tirqiratib yubordi.* (N.Norqobilov). Ushbu misolda ravishdosh o‘ram yoldorning xavfli raqibligi haqidagi propozitsiyani ifodalagan.

Ravishdosh o‘ramli sodda gaplarda subyektning bittaligi predikatdan anglashilgan harakatning ketma-ket yuzaga kelishini ifodalaydi. Ba’zan ifodalanyotgan harakat mantiqan bir-biriga zid bo‘lgan leksik birliklardan ham tarkib topishi mumkin. *Yig‘lay-yig‘lay tiniqib, keyin yana chaqchaqlashib o‘tiraverishardi.* (Isajon Sulton). Yig‘lamoq va chachaqlashmoq harakatlari bir paytda yuz beradigan harakat emas, mantiqan bir-biriga to‘g‘ri kelmaydigan ikki tushuncha. Ammo gap tarkibidagi *tiniqmoq* fe’li presuppozitsiyaga ishora qilgan, ya’ni yig‘lab ko‘ngillarini bo‘shatib, keyin chaqchaqlashishadi degan ma’no anglatish uchun xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganda ravishdosh o‘ramli sodda gaplar tildagi tejamkorlik tamoyili asosida yuzaga keladi. Ravishdosh o‘ramlar vositasida murakkablashuv

hodisasi tilning ifoda imkoniyatlari bilan birga uning pragmatik imkoniyatlarini ham ko'rsatib beradi. Ravishdosh o'ramlar vositasida sodda gaplarning murakkablashuvi asosiy predikatdan ifodalangan harakatning bajarilish tarsi, o'rni, maqsadi, sababi kabilarni ifodalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (Синтаксис). – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
2. Нурманова Д. Ўзбек тилида мураккаблашган содда гапларда мўътадиллашув Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2022. 5(65). 97-104. URL: <https://www.ajhuman.uz/article/871854708498/abstract>
3. Патроева Н. Типы и функции осложняющих конструкций в языке русской поэзии XVIII-XIX в.в.: Автореф. дисс. док. фил. наук. – Санкт-Петербург. 2005. – 54 с.
4. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик-синтактик асимметрия – Тошкент: Ўқитувчи, 1984
5. Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1965. – 316 б.
- 6.Umurzakova M. <https://www.researchgate.net/publication/352351935>
Communicative_and_pragmatic_functions_of_segmented_structures?_sg%5B0